

HADISLAR VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI HAQIDA

Omonova Ma'mura

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik fakulteti Dinshunoslik
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hadis va uning turlari, hadis mohiyati hamda hadislarning bugungi kundagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *mutavotir, roviy, musnad, mashhur, ohod.*

Hadis so'zi lug'aviy jihatdan "gap, so'z, hikoya" va " yangi, zamonaviy" kabi ma'nolarni anglatadi. Hadis ilmi istilohida hadis deyilganda Muhammad sollallohu alayhi vasallamning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, taqriqlari (ko'rib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o'zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlar tushuniladi hamda hadis so'zi "xabar", "osor" va "sunnat" so'zlari bilan bir ma'noda ishlatiladi. Imom Molikdan rivoyat qilingan hadisi sharifda Muhammad sollallohu alayhi vasallam: "Sizlarga ikki ishni qoldirib ketyabman, agar ularni ushlasangiz adashmaysiz: Alloh taoloning kitobi va Rasulining sunnati", deya o'z ummatini ogohlantirgan edilar. Shunga ko'ra, Islom olamida Qur'oni Karimdan keyini muqaddas manba bu hadisi shariflardir.

Hadisi shariflar Islom ummatiga ikki xil yo'l bilan yetib kelgan bo'lib, ular :

1." An'ana" uslubi. Bu uslubda isnodda "an", ya'ni "dan" so'zi bilan ifodalanadi hamda bu turdagi usulda hadislar yo'l-yo'lakay aytib ketilavergan.

2."Tahdis" uslubida esa so'zlovchi tinglovchiga hadis aytishning barcha talablariga rioya qilgan holda rivoyatni uzatgani tushuniladi.Ustoz hadisni tahorat bilan o'tirgan holda aytgan va shogird uning og'zidan shaxsan o'z qulog'i bilan eshitgan bo'lsa, hadis "tahdis" yo'li bilan uzatilgan hisoblanadi. Bunda shogird ustozdan eshitgan hadisini "haddasana" yoki "haddasani" shaklida ifodalaydi.

Hadislarni asrlar osha bizga yetib kelishi jihatidan taqsimlash borasida ikki xil yo'l tutilgan.

Birinchi yo'l fuqaholar va ba'zi ahli hadislarning yo'li bo'lib, ular hadislarni mutavotir va ohodga taqsimlaydilar.

Ikkinchi yo'l hanafiylarniki bo'lib, ular hadislarni mutavotir, mashhur va ohodga taqsimlaydilar.

Mutavotir so'zi lug'atda تواتر degan o'zakdan olingan ism foil bo'lib, "uzluksiz ketma-ket kelmoq" degan ma'noni bildiradi. Istilohda esa "mutavotir" deb roviylari yolg'onga til biriktirib olishlarini gumon qilib bo'lmaydigan darajada juda ko'pchilik tomonidan rivoyat qilingan hamda mana shu adad u xabarning avvalidan to oxirigacha davom etadigan xabarga aytiladi. Ulamolar mutavotirni inkor etuvchilarning kofir bo'lishiga ittifoq qilganlar. Hanafiylar mutavotirni bir necha qismlarga taqsimladilar. Lekin bu qismlar kitoblarda tartiblanmagan, tarqoq holatda edi. So'ngra shayx alloma Kashmiriy rohmatullohi alayh ularni qismlarga ajratib, tartibladilar va buni o'zlarining

ushbu so'zlari bilan bayon qildilar: "Albatta, "Nuxbatul fikr"ning sharhida Hofiz Ibn Hajar naql qilganidek, ba'zi insonlar mutavotir xabarlarini kam vorid bo'lgan deb o'ylaydilar. Ba'zi olimlar mutavotir xabarga misol keltirishning imkoni yo'q, deb aytishgan. Ba'zilar esa mutavotir xabarlarini juda nodir deb, bir yoki ikki donagina misol keltirishgan. Vaholanki, shariatimizda mutavotir xabarlar, men zikr qilib o'tgan to'rttalik taqsimga ko'ra, sanab adog'iga yetib bo'lmas darajada ko'p bo'lib, kishi ularni bir ro'yxatga jamlashdan o'zgaradi. Lekin gohida mutavotir xabar e'tibordan chetda qoladi, ammo unga nazar solinsa, uning mutavotir ekani ayon bo'ladi. Bu narsaga alohida e'tibor qaratish zarur".

Shung ko'ra mutavotir ikki qismga yoki to'rt qismga bo'linadi, degan fikrlar mavjud. Ba'zilar ularni quyidagi turlarga bo'lishadi:

- lafziy mutavotir;
- ma'naviy mutavotir;
- tabaqaviy mutavotir;
- amaliy mutavotir

Jumhur esa mutavotirni quyidagi ikki katta guruhga bo'ladi:

- lafziy;
- ma'naviy

Mutavotirning birinchi turida hadisning lafzi ham, ma'nosi ham mutavotir bo'lib, bu qismni alloma Kashmiriy "isnodning mutavotir bo'lishi" deb nomlaganlar.

Bu qismga oid misollar juda kamdir, sababi uning shartlarining topilishi qiyin bo'lishidadir. Lekin mutavotirning bu turiga Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja, Dorimiy va Ahmad ibn Hanbal kabi ulug' imomlar rivoyat qilgan quyidagi hadis misol bo'la oladi:

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kim menga qasddan yolg'on to'qisa, jahannamdan borar joyini tayyorlasin", dedilar". Ushbu rivoyatni yetmishdan ziyod sahobiy rivoyat qilganlar. So'ngra bu ko'p sonli adad sanadning qolgan tabaqalarida ham davom etib, ziyoda ham bo'ldi.

Mutavotirning keying turi hisoblangan ma'naviy mutavotir hadisning matnida tavotur bo'lmaydi, balki ma'nosida tavotur bo'ladi. Misol uchun, duoda ikki qo'lni ko'tarish ma'nosi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning yuzga yaqin hadislarida kelgan. Lekin yuzta hadisning hammasi bir xil matnga ega emas. Masalan, kimdir namozdan keyin duoga qo'l ko'targanlarini, boshqasi istisqo namozida, yana boshqa roviy hayit namozida qo'llarini ko'targanlarini ko'rgan va rivoyat qilgan bo'lishi mumkin. Lekin barchasida umumiylik mavjuddir.

"Ohod" so'zi arab tilida "ahad"ning ko'plik shakli bo'lib, "bitta" degan ma'noni anglatadi. Istilohda esa o'zida mutavotir xabarning shartlarini jamlamagan xabar "ohod xabar" deyiladi. Ohod xabarlar yo'llari soniga qarab uch qismga taqsimlanadi:

- 1.Mashhur
- 2.Aziz
- 3.G'arib.

Bundan tashqari hadislar qabul qilinishlik yoki qilinmaslik, e'tiborliligi nuqta'i nazaridan ham turli guruhlarga bo'linadi.

Shunday qilib, yuqoridagi kabi hadislarining qaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar ularning Islom olamida o'rni hamda bugungi kundagi ahamiyati beqiyosdir. Hadisi shariflarda Islom shariatining asoslari yoritilish bilan birgalikda insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi. Insoniylik sha'niga dog' tushiradigan yomon sifatlar qoralanadi. Ya'ni, hadislarda o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insofli bo'lish targ'ib qilinadi. Razolat, kibr-u havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nafrat tuyg'ulari ifodalanadi. Umuman olganda hadislar tarbiya, axloq manbasi hisoblanadi. Hadislar mazmunan har bir mo'minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlarni ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hadisshunoslik qo'llanma. D.Rahimjonov, D. Muratov, R. Obidov, M. Alimova; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huuzuridagi Toshkent islom universiteti.-Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2013.-268 b.
2. Mustalahul hadis. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Hilol-Nashr", 2021.-384 b.
3. <https://oliymahad.uz>